

**SEYSMOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.12.2019.GM/FM.97.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SEYSMOLOGIYA INSTITUTI**

**ORIPOV NOZIMJON KOMILOVICH**

**BINO-INSHOOTLARNI QURILISHINI HISOBGA OLGAN HOLDA  
QURILISH MAYDONLARIDA SEYSMIK TA'SIR O'ZGARISHINING  
XUSUSIYATLARI**

**04.00.06 – Geofizika. Foydali qazilmalarni qidirishning geofizik usullari**

**fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent-2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Oripov Nozimjon Komilovich**

Bino-inshootlarni qurilishini hisobga olgan holda qurilish maydonlarida seysmik ta'sir o'zgarishining xususiyatlari.....3

**Орипов Нозимжон Комилович**

Особенности изменения сейсмических воздействий на строительных площадках с учетом застройки зданий и сооружений.....21

**Oripov Nozimjon Komilovich**

Characteristics of seismic impact variations at construction sites considering the construction of buildings and structures.....41

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....45

**SEYSMOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.12.2019.GM/FM.97.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SEYSMOLOGIYA INSTITUTI**

**ORIPOV NOZIMJON KOMILOVICH**

**BINO-INSHOOTLARNI QURILISHINI HISOBGA OLGAN HOLDA  
QURILISH MAYDONLARIDA SEYSMIK TA'SIR O'ZGARISHINING  
XUSUSIYATLARI**

**04.00.06 – Geofizika. Foydali qazilmalarni qidirishning geofizik usullari**

**fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent-2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/FM1218 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Seysmologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.seismos.uz](http://www.seismos.uz)) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Ismailov Vaxitxan Alixanovich**

geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Ibragimova Tatyana Lyudvigovna**

fizika-matematika fanlari doktori

**Nurtayev Baxtiyor Sayfullayevich**

fizika-matematika fanlari nomzodi

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent arxitektura qurilish universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Seysmologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.GM/FM.97.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «23» dekabr soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100128, Toshkent shahar, Zulfiyaxonim ko'chasi, 3-uy; Tel.: +99871 241-51-70; +99871 241-74-98; e-mail: [seismologiya@mail.ru](mailto:seismologiya@mail.ru)).

Dissertatsiya bilan Seysmologiya institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 1160 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100128, Toshkent shahar, Zulfiyaxonim ko'chasi, 3-uy; Tel.: +99871 241-51-70.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «5» dekabr kuni tarqatildi.  
(2025 yil «5» dekabrda 19-raqamli reyestr bayonnomasi)



**S.X. Maksudov**

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash raisi,

f.-m.f.d., professor

**Z.F. Shukurov**

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash ilmiy kotibi,

g.-m.f. bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**A.I. Tuychiyev**

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash qoshidagi

Ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d.

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon amaliyotida seysmik faol hududlarda urbanizatsiya jarayonlarining jadal rivojlanishi seysmik xavfsizlik muammolarini hal etishni yanada dolzarb masalaga aylantirmoqda. Xususan, bino-inshootlarning zilzilabardoshliligini ta'minlash maqsadida qurilish maydonlarida seysmik ta'sirni aniqlash va baholashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu munosabat bilan, qurilish maydonlarida bino-inshootlarni loyihalash va qurishda seysmik ta'sirni yanada ishonchli baholashga imkon beruvchi yangi yondashuvlarni ishlab chiqish va mavjud usullarni takomillashtirish ilmiy izlanishlarning samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Hozirda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida grunt-inshoot tizimining o'zaro ta'sirlashuvini chuqur o'rganishga qaratilgan keng ko'lamli tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, zich qurilish ishlari olib borilayotgan hududlarda ushbu izlanishlar zamin gruntlarining seysmik parametrlari o'zgarishini aniqlash, shuningdek grunt-inshoot tizimining zilzilaga nisbatan javob xususiyatlarini ishonchli baholashga ahamiyat berilmoqda. Grunt-inshoot tizimining raqamli modellarini yaratish, zamin gruntlarining chastotaviy javob spektrlari va tebranish xususiyatlarini hisoblash yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf omillarini erta aniqlash imkonini bermoqda. Olingan amaliy natijalar seysmik xavfsizlik choralari takomillashtirishda hamda seysmik xatarni real sharoitda baholash jarayonlarida qo'llanilmoqda.

Respublikamiz seysmik faol mintaqada joylashgani va so'nggi yillarda qurilish hajmining jadal ortib borishi kuchli zilzilalar sodir bo'lganda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan iqtisodiy va ijtimoiy yo'qotishlar xavfini kamaytirish masalasini yanada dolzarb qilmoqda. Shu munosabat bilan, grunt-inshoot tizimini geofizik va instrumental-seysmometrik usullar asosida chuqur o'rganish, binolarning statik yuklamalari hamda zilzilalar ta'siri ostida zamin gruntlarining dinamik xususiyatlarida yuz beradigan o'zgarishlarni tahlil qilish, shuningdek geotexnik modellashtirish usullarini keng ko'lamda qo'llash bo'yicha tadqiqotlar respublika miqyosida faol olib borilmoqda. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida «...rivojlangan davlatlarning bino-inshootlar bo'yicha qurilish xavfsizligi me'yorlari asosida yangi standartlarni joriy qilish...»<sup>1</sup> singari muhim maqsadlar belgilangan. Bino-inshootlar qurilishi bilan bog'liq seysmik ta'sir o'zgarishlarini tahlil qilish, grunt-inshoot tizimining tebranish xususiyatlarini chuqur o'rganish hamda ularning dinamik ta'sirini baholash seysmik xavfsizlikni ta'minlash nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-maydagi "O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-158-son qarorining 1-ilovasi, 29-bandida belgilangan "Qurilish maydonlarida seysmik ta'sir va seysmik jadallik ko'rsatkichlarini kamaytirish usullarini ishlab chiqish" vazifalariga muvofiq, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 17-apreldagi "Bino va inshootlarning zilzilabardoshligini oshirish hamda seysmik xavfni monitoring qilish faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-161-son qarorining

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmoni

1-ilovasi, 34-bandida belgilangan “Zamin poydevor gruntlarining seysmik mustahkamligini oshirish hamda qurilish maydonining seysmik jadalligi va seysmik tebranish parametrlarini kamaytirish usullarini ishlab chiqish va ularni tajriba sinovlaridan o‘tkazish” bo‘yicha topshiriqlarni bajarishga dissertasiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning VIII – “Yer haqidagi fanlar” (geologiya, geofizika, seysmologiya va mineral xom ashyoni qayta ishlash) ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Bino-inshootlarning qurilishi natijasida seysmik ta’sirning o‘zgarishi va grunt-inshoot tizimining dinamik o‘zaro ta’sirlashuvi ko‘plab ilmiy tadqiqotlarning markazida bo‘lib kelmoqda. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar zilzila vaqtida grunt-inshoot tizimining dinamik xatti-harakatini tahlil qilish, seysmik to‘lqinlarning tarqalish qonuniyatlarini aniqlash hamda bino va grunt o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni baholash masalalariga qaratilgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inshootlarning mavjudligi gruntlarning tabiiy rezonans chastotasi, seysmik tebranish amplitudalari va grunt qatlamlarining deformatsion xususiyatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. H.B. Seed, I.M. Idriss, J. Lysmer, J.P. Wolf, G. Gazetas, A. Gomez-Masso, G. Mylonakis, Y. Nakamura, S.V. Medvedev, G.A. Dubrova, V.G. Bajenov, N.S. Dyukina, M.A. Abu Leyl kabi olimlarning ishlari zilzilalar vaqtida bino va grunt tizimining o‘zaro ta’siri mexanizmini ochib berishga qaratilgan. H.B. Seedning “Earthquake effects on soil-structure systems” ilmiy ishida grunt-inshoot tizimining zilzila vaqtida o‘zaro dinamik ta’siri chuqur tahlil qilingan. S.V. Medvedev, R.E. Tatevosyan, T.R. Rashidov, X.M. Mirzabayev, S.M. Kasimov, A. Jurayev va boshqalar tomonidan kuchli zilzilalarda binolarni shikastlanish darajasi zamin gruntlarining deformatsiyalanish darajasi bilan bog‘liqligi o‘rganib chiqilgan. G. Gazetas tomonidan grunt qatlamlarining seysmik xususiyatlari va bino-inshootlarning mavjudligi sharoitida seysmik to‘lqinlarning o‘zgarishi bo‘yicha fundamental tadqiqotlar olib borilgan. Shuningdek, D.N. Nizomov va V.G. Barannikovlar turli xil geologik sharoitlarda bino va inshootlarning dinamik tebranishlarini matematik modellar orqali tahlil qilgan.

So‘nggi yillarda Plaxis 3D, FLAC3D, ABAQUS kabi zamonaviy modellashtirish dasturlaridan foydalanilgan holda grunt-inshoot tizimining dinamik harakatini aniqlash, seysmik tebranishlarning inshoot poydevorlariga ta’siri va grunt qatlamlarining deformatsion o‘zgarishlarini tahlil qilish bo‘yicha ilmiy ishlar olib borilgan. F. Besseling va A. Lengkeek tomonidan Plaxis dasturidan foydalanib, zilzilalar sharoitida grunt-inshoot tizimini modellashtirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan.

O‘zbekistonda zilzilalar vaqtida bino va inshootlarning grunt qatlamlariga ta’siri, grunt qatlamlarining deformatsiyalanish xususiyatlari hamda inshootlarning seysmik chidamliligini oshirish bo‘yicha turli ilmiy yondashuvlar taklif qilingan. X.Z. Rasulov, N.G. Mavlyanova, V.A. Ismailov va A.X. Ibragimovlar tomonidan seysmik xavfni baholash va zilzilaga chidamli qurilish texnologiyalarini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan. T.R. Rashidov, U. Shamshiyev, Sh.A. Hakimov, B.S. Rahmonov, X. Sagdiyev, A.S. Yuvmitov va boshqalar bino-inshootlarning seysmik

tebranishi grunt-inshoot tizimi o'zaro ta'siriga bog'liqligini e'tirof etgan holda, ushbu omilni ularning zilzilabardoshlilikini baholashda inobatga olishni taklif qilgan. Ushbu tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, grunt-inshoot tizimining dinamik xususiyatlarini tahlil qilish, seysmik ta'sirning o'zgarishini baholash hamda zamonaviy modellashirish usullarini ishlab chiqish masalalari bugungi kunda ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Seysmologiya instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq amalga oshirilgan bo'lib, "Yuqori qavatli binolarning seysmik riskini baholash metodikasini ishlab chiqish" (2023) mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** qurilish maydonlarida bino-inshootlarning grunt qatlamiga ta'sirini hisobga olgan holda grunt-inshoot tizimining seysmik tebranish ko'rsatkichlarini o'zgarishini baholashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

zaif seysmik tebranishlar (mikrotremorlar) asosida grunt-inshoot tizimi va erkin maydondagi tebranishlarning kinematik parametrlarini aniqlash hamda ularning farqlarini taqqoslash;

sun'iy manba yordamida qo'zg'atilgan seysmik tebranishlar asosida binolar joylashgan qurilish maydonlarida seysmik energiyaning yutilish darajasini baholash;

bino-inshootlarning mavjudligi sharoitida qurilish maydonlari grunt qatlamlarining spektral xususiyatlarini o'rganish va ularning dinamik o'zgarishlarini baholash;

bino-inshootlar zamin gruntlarining seysmik jadallik orttirma qiymatlari hamda seysmik to'lqinlar tarqalish tezligining o'zgarishlarini aniqlash va tahlil qilish;

ilg'or kompyuter dasturlari yordamida grunt-inshoot tizimi va erkin maydonning 3D modellarini yaratish hamda ular asosida statik va dinamik ta'sirlardagi o'zgarishlarni baholash.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida Toshkent shahri va Jizzax viloyatidagi qurilish maydonlarining grunt-inshoot tizimi tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmeti** bino-inshootlar qurilishidan so'ng qurilish maydonlarida seysmik ta'sir va chastota xarakteristikalarining o'zgarishini eksperimental va nazariy baholashdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida geofizik tadqiqot usullari, jumladan yuzaki to'lqinlarni ko'p kanalli tahlil qilish (MASW), mikrotremorlarning gorizontal va vertikal spektrlarining nisbati (HVSr) usullari hamda grunt-inshoot tizimining uch o'lchamli raqamli modellarini yaratishda PLAXIS 3D dasturida Mor-Kulon va HS-small modellaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

qurilish maydonlarida zilzila natijasida hosil bo'ladigan seysmik tebranish ko'rsatkichlarining bino-inshoot zamin gruntlariga ta'siri nazariy hamda eksperimental baholangan;

yuzaki to'lqinlar spektral tarkibining inversiyasi asosida bino zamin gruntlari va erkin maydondagi seysmik to'lqin tezliklarining chuqurlik bo'yicha o'zgarishini ifodalovchi tezlik modellari ishlab chiqilgan;

grunt-inshoot tizimining 3D modellarida binolarning statik yuklamasi ta'siridagi gruntlarning seysmik xususiyatlari, jumladan, tezlik, tezlanish va siljish qiymatlarining kamayishi aniqlangan;

ilk bor qurilish maydonlarida qo'llaniladigan turli xil bino poydevorlarining (sayoz, chuqur, qoziqsimon) seysmik ta'sir darajasini kamaytirish xususiyati miqdoriy jihatdan baholangan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari:**

bino-inshootlar qurilishidan so'ng qurilish maydonlarida seysmik tebranish parametrlarining o'zgarishi va seysmik energiyaning yutilish darajasi aniqlangan;

erkin maydon va bino-inshootlar ostidagi zamin grunt qatlamlarining spektral tarkibi tahlil qilinib, turli poydevor turlarining (sayoz, chuqur va qoziqsimon) dinamik javobga ta'siri baholangan;

bino-inshootlar qurilishi natijasida asos gruntlarida seysmik to'lqinlarning tarqalish tezligi va tebranish jadalligining o'zgarishi asosida hisobiy seysmiklikning kamayishi aniqlangan;

PLAXIS 3D dasturida erkin maydon va grunt-inshoot tizimining statik va dinamik ta'sir ostidagi deformatsiyaviy hamda zilzila ta'siriga javobini ifodalovchi uch o'lchamli (3D) modellari yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi:** Amalga oshirilgan tadqiqotlarning ishonchliligi Toshkent shahri va Jizzax viloyatida o'tkazilgan dala-kuzatuv tadqiqotlari hamda mavjud ma'lumotlar tahliliga asoslanadi. Xususan, 40 ta o'lchov punktida mikrotremor kuzatuvlari (HVSr usuli), 10 ta seysmik profil bo'yicha (MASW usuli) o'tkazilgan tadqiqotlar hamda ushbu hududlardagi 20 ta burg'u qudug'i ma'lumotlari va muhandis-geologik qirqim natijalari bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qurilish maydonlariga turli poydevor turlari (sayoz, chuqur va qoziqsimon) hamda har xil qavatga ega binolar qurilishi natijasida zamin gruntlarining seysmik tebranish xususiyatlarida yuzaga keladigan o'zgarishlarning geofizik usullar va uch o'lchamli raqamli modellashtirish asosida ilk bor majmuaviy tarzda baholanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati bino-inshootlar barpo etilgan qurilish maydonlarining seysmik energiyaning yutish qobiliyati va seysmik jadallik orttirma qiymatlariga ta'sirini hisobga olish zarurligi bilan asoslandi. Mazkur yondashuv seysmik xatarni baholashda yangi omillarni inobatga olish va zilzila ta'sirini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari bino qavatlari va poydevor turlariga qarab, zamin gruntlarida seysmik energiyaning yutilishi hamda jadallik orttirma qiymatlari o'zgarishlarini oldindan baholash imkonini beruvchi mezonlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Bino-inshootlar qurilishi sharoitida qurilish maydonlarida seysmik ta'sirning o'zgarishini geofizik, instrumental-seysmometrik usullar hamda uch o'lchamli raqamli modellashtirish asosida baholash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

qurilish maydonlarida kuchli zilzilalar natijasida yuzaga keladigan seysmik tebranish ko'rsatkichlarini eksperimental baholash metodikasi "GEOKADASTR" MCHJ amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy



kommunal xo'jaligi vazirligining 2025 yil 11 fevraldagi 20-06/1627-sonli ma'lumotnomasi asosida). Ushbu natijalar bino-inshootlar zamin gruntlarining seysmik energiyani yutish xususiyatlarini samarali baholashda xizmat qilgan.

yuzaki to'liqlarning HVSR egri chizig'i inversiyasi asosida  $V_p$  va  $V_s$  to'liq tezliklarining chuqurlik bo'yicha taqsimotini aks ettiruvchi modellar "O'ZGASHKLITI" loyiha-qidiruv tashkiloti amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2025-yil 11-fevraldagi 20-06/1627-sonli ma'lumotnomasi asosida). Ushbu modellar qurilish maydonlarining seysmik tezlik parametrlarini samarali aniqlash imkonini bergan.

binolarning statik yuklamasi ta'sirida gruntlarning seysmik xususiyatlarini baholash uchun ishlab chiqilgan grunt-inshoot tizimining uch o'lchamli (3D) raqamli modellari "O'ZGASHKLITI" loyiha-qidiruv tashkiloti amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2025-yil 11-fevraldagi 20-06/1627-sonli ma'lumotnomasi asosida). Ushbu modellar tezlik, tezlanish va siljish parametrlarining kamayishini aniqlash imkonini bergan.

ilk bor qurilish maydonlarida qo'llaniladigan turli xil bino poydevorlarining (sayoz, chuqur va qoziqsimon) seysmik ta'sirni kamaytirish darajasi "ZANGIOTA HOUSE" MChJ amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2025-yil 11-fevraldagi 20-06/1627-sonli ma'lumotnomasi asosida). Ushbu natijalar poydevor turlarining seysmik ta'sirni turlicha darajada kamaytirish samaradorligini miqdoriy baholash imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, ulardan 5 tasi maqola va 9 tasi tezisdan iborat. Shundan 5 tasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, jumladan 4 tasi respublika, 1 tasi xorijiy ilmiy jurnalda e'lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 116 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


**Kirish qismida** o'tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va talabgirliigi, uning maqsad va vazifalari asoslab berilgan, tadqiqot ob'yekti va predmeti ta'riflangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo'nalishlarga muvofiqligi ko'rsatib o'tilgan, tadqiqotning ilmiy yangilik ekanligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi yoritib berilgan hamda nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «Qurilish maydonlarida bino-inshootlar ta'sirida shakllanuvchi va o'zgaruvchi seysmik omillarning ilmiy tadqiq etilganligi» deb

nomlangan birinchi bobida qurilish maydonlarida grunt-inshoot tizimi (SSI) dinamik o‘zaro ta’sirining ilmiy asoslari batafsil tahlil qilingan (1-rasm). Xorijiy va mahalliy tadqiqotlar asosida qurilish maydonlarida seysmik ta’sir parametrlari bino-inshootlarning uzoq muddatli ekspluatatsiyasi natijasida sezilarli darajada o‘zgarishi mumkinligi ko‘rsatilgan. 1960-1980-yillarda mazkur yo‘nalishda shakllangan fundamental nazariyalar, xususan, grunt va inshootlarning mexanik aloqalari hamda zilzila sharoitida ularning o‘zaro ta’sirlashuvi tadqiq etilgan. H.B. Seed, I.M. Idriss, J. Lysmer, J.P. Wolf, G. Gazetas, A. Gomez-Masso, G. Mylonakis, Y. Nakamura, S.V. Medvedev, G.A. Dubrova, V.G. Bajenov, N.S. Dyukina, R.E. Tetevasyan kabi xorijiy olimlarning ishlarida kinematik va inersiyal ta’sirlarning seysmik javob shakllanishidagi ahamiyati, Reley to‘lqinlari va rezonans holatlarning tahlili nazariy va amaliy modellar yordamida bayon etilgan.

Mahalliy tadqiqotlarda ham grunt-inshoot tizimi masalasi keng qamrovli ko‘rib chiqilgan bo‘lib, xususan, A. Jurayev tomonidan Gazli zilzilasiining grunt sharoitlariga bog‘liq ta’siri va bu jarayonning konstruktiv bir xil bo‘lgan binolarda turlicha shikastlanishlarni keltirib chiqarishi tadqiq qilingan. V.A. Ismailov tomonidan seysmik xavf va xavfni baholashning turli darajali metodikasi ishlab chiqilgan bo‘lib, grunt-inshoot tizimining dinamik ta’sirini aniqlash va baholashning ilmiy asoslarini boyitishga muhim hissa qo‘shgan. Shuningdek, B.S. Rahmonov va X. Sagdiyev tomonidan seysmik-portlash ta’sirlari ostida grunt-inshoot tizimidagi o‘zaro ta’sir energetik jihatdan baholanib, grunt va inshoot orasidagi dinamik ta’sirning yangi hisoblash formulalari ishlab chiqilgan. D.N. Nizomov, X.Z. Rasulov, A.X. Ibragimov, T.R. Rashidov, U. Shamshiyev, Sh.A. Hakimov, A.S. Yuvmitov va boshqa mahalliy olimlar grunt-inshoot tizimining seysmik javobini raqamli modellashtirish va matematik usullar orqali chuqur tahlil qilib, gruntning qo‘zg‘aluvchanligi, quvvati, dinamik moduli hamda rezonans xususiyatlarini batafsil yoritib bergan.

Shuningdek bobda grunt-inshoot tizimi nazariyasining asosiy tamoyillari va ularning amaliyotda qo‘llanilishi yoritilgan. Grunt-inshoot tizimidagi dinamik o‘zaro ta’sirning ikki asosiy turi – kinematik va inersiyal ta’sirlarning mohiyati batafsil tahlil qilingan.



1-rasm. “Grunt-inshoot” tizimi shakllanishining sxematik modeli

Kinematik ta’sirlar grunt orqali tarqaluvchi seysmik to‘lqinlarning poydevor shakli va o‘lchamiga qarab deformatsiyalanishi, amplituda va energiya yutilishining


o'zgarishini aks ettiradi. Ushbu jarayonlarni baholash uchun kinematik uzatish funksiyasining nazariy asoslari, uning hisoblash usullari keltirilgan. Inersiyal ta'sirlar esa inshoot massasining zilzila natijasida hosil bo'lgan dinamik yuklamalarni ifodalab, gruntning deformatsiyalanishiga ta'sirini yoritadi. Bunda grunt-inshoot tizimining umumiy dinamik javobini hisoblash formulalari ishlab chiqilgan va tizimning seysmik harakatlari amplituda va rezonans xususiyatlari bilan bog'liqligi asoslab berilgan. Bundan tashqari, grunt-inshoot tizimining seysmik javobini aniqlashda to'g'ri masala (grunt va inshootni birgalikda modellash) va substrukturaviy (alohida modellash) usullarining ilmiy asoslari tahlil etilgan bo'lib, bu yondashuvlar amaliy seysmik baholash ishlari uchun zarur metodik asoslarni tashkil etishi ta'kidlangan.

Dissertatsiyaning **«Qurilish maydonlarida zamin gruntlarining muhandislik-geologik va seysmik xususiyatlari hamda ularning binolar ekspluatatsiyasi davrida o'zgarishi»** deb nomlangan ikkinchi bobida Toshkent shahri va Jizzax viloyatidagi qurilish maydonlarining seysmotektonik va muhandislik-geologik sharoitlari, grunt qatlamlarining fizik-mexanik va seysmik xususiyatlari hamda bino-inshootlarning ekspluatatsiyasi davomida grunt-inshoot tizimida yuzaga keladigan o'zgarishlar batafsil tahlil qilindi. Tadqiqot davomida erkin maydon va grunt-inshoot tizimlarida mikrotremor usuli asosida instrumental-seysmometrik kuzatuvlar olib borilib, qurilish maydonlarida bino ta'siri natijasida tebranish amplitudalarining kamayishi eksperimental ravishda aniqlandi va statistika jihatidan asoslandi.

Dastlab tadqiqot obyekti sifatida tanlangan qurilish maydonlari geologik va seysmotektonik jihatdan o'rganilib, ularning struktural joylashuvi, seysmik faolligi va grunt qatlamlarining muhandislik-geologik elementlari aniqlab chiqildi. Toshkent shahri Tyon-Shon epiplatforma orogeni va Turon plitasi oralig'idagi tektonik faol hududda joylashgan bo'lib, uning seysmik faolligi Karjantog' va Toshkent-Piskom seysmogen zonalari ta'siri ostida shakllanadi. Hududda seysmik jadallik MSK-64 shkalasi bo'yicha 8 ballgacha baholanadi. Har bir tanlangan qurilish maydonlari geologik nuqtai nazardan turli litologik sharoitlarda joylashgan bo'lib, ularning har biri uchun muhandis-geologik qirqimlar tuzildi. Jumladan, barcha 6 obyekt hududlarida burg'ilangan 20 dan ortiq burg'u quduqlaridan olingan ma'lumotlar asosida grunt qatlamlarining fizik-mexanik xususiyatlari, zichlik, bog'lanish kuchi, deformatsiya moduli kabi muhim ko'rsatkichlar aniqlangan.

Qurilish maydonlarida bino-inshootlar qurilishi bilan bog'liq seysmik ta'sir o'zgarishini aniqlash va tahlil qilish maqsadida binolar poydevor turi va qavatlar soniga ko'ra maxsus saralandi. Tadqiqotlar davomida, asosan, uch xil poydevor turiga ega binolar joylashgan qurilish maydonlaridagi grunt-inshoot tizimidan olingan materiallar chuqur tahlil qilindi (2-rasm). Shuningdek, grunt-inshoot tizimining mikroseysmik xatti-harakatlarini baholash maqsadida olib borilgan mikrotremor tadqiqotlari uslubiyati, o'lchov jarayoni va ularning ilmiy asoslangan natijalari yoritildi. Mikroseysmik kuzatuvlar bino poydevorida va unga tutash erkin maydon sharoitida sinxron tarzda amalga oshirilib, tebranish amplitudasining o'zgarishi kinematik parametrlar tezlik, tezlanish va siljish tebranishlari bo'yicha tahlil qilindi. Kuzatuvlar Buyuk Britaniyada ishlab chiqarilgan yuqori aniqlikdagi

Guralp CMG-6TD rusumli raqamli seysmometrlar yordamida olib borilib, har bir nuqtada 30 daqiqalik yozuvlar qayd etildi. Olingan yozuvlarga dastlabki ishlov berish GCFInfo, Scream va Discovery-2 dasturlari orqali amalga oshirildi.



2-rasm. Tadqiqot obyektlaridagi poydevor turlarining sxematik ko‘rinishi:

A) sayoz; B) chuqur; C) qoziqsimon

Seysmik to‘lqinlarning ta‘sirini aniq va to‘liq baholashda eng samarali yondashuv bu tebranishlar kinematik elementlarining maksimal vektor modulini hisoblashdir. Bunda X, Y va Z komponentlardagi ushbu parametrlar hisobga olinib, ularning umumiy vektor moduli quyidagi ifoda (1) asosida aniqlanadi.


$$\bar{U}_{(X,Y,Z)} = \left| \sqrt{U_X^2 + U_Y^2 + U_Z^2} \right|_{max} \quad (1)$$

O‘lchov natijalari asosida erkin maydon va grunt-inshoot tizimida qayd etilgan tebranish amplitudalari o‘rtasida sezilarli tafovut mavjudligi aniqlandi. Tezlik amplitudasi qiymatlari bo‘yicha quyidagi obyektlarda ahamiyatli ortish kuzatildi: Ko‘kaldosh madrasasida – 23,3%, Ilg‘or texnologiyalar markazida – 53,8%, Chilanzar Business City TJMda – 61,7%, N‘Medical Centerda – 60,4%, Jizzax TJMda – 60,1% va NRJ U-Towerda – 62,6%.

Amplituda pasayishining darajasi bino balandligi, poydevor chuqurligi va gruntning fizik-mexanik xossalari bilan bevosita bog‘liq ekani aniqlandi. Ayniqsa chuqur poydevorli yoki qoziqsimon poydevorli binolarning zamin gruntlarida, seysmik energiyaning yutilish darajasi nisbatan yuqori bo‘ldi. Mazkur natijalar grunt-inshoot tizimi orqali seysmik to‘lqinlarning qanday so‘nishini real tajriba asosida isbotlab berdi. Bino zamin grunt qatlamlari tabiiy filtr sifatida faoliyat ko‘rsatib, erkin maydonga nisbatan tebranish amplitudasini 23% dan 69% gacha kamaytirishi mumkinligi aniqlandi (3-rasm). Bu holat grunt-inshoot tizimining dinamik xossalarini chuqurroq anglash va inshoot xavfsizligini tahlil qilishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Qo‘shimcha tadqiqot sifatida grunt-inshoot tizimining tebranishlarga nisbatan javobini baholash maqsadida sun‘iy seysmik manba qo‘llanildi. Toshkent shahrida joylashgan Ilg‘or texnologiyalar markazi binosi yaqinida og‘ir yukni yerga tashlash orqali sun‘iy tebranishlar hosil qilindi. Ushbu tebranishlar bino poydevorida (grunt-inshoot tizimida) va unga tutash erkin maydonda sinxron tarzda qayd etildi. O‘lchov natijalari bino poydevorida tebranish amplitudasining sezilarli darajada kamayishini ko‘rsatdi. Jumladan, maksimal amplituda NS, EW va Z komponentlari bo‘yicha mos ravishda 95,7%, 94,9% va 76,7% ga pasaygan bo‘lib, o‘rtacha amplituda kamayishi

92% ni tashkil etdi. Mazkur sun'iy tebranish asosida o'tkazilgan eksperiment grunt-inshoot tizimining energiyani yutish xususiyatlarini yaqqol namoyon etdi.



3-rasm. Binolar zamin gruntlarining erkin maydonga nisbatan tebranish tezligi va tezlanishi farqlarining qavat balandligi o'rtasidagi bog'liqlik

Dissertatsiyaning «**Grunt-inshoot tizimining dinamik xususiyatlarini tahlil qilish maqsadida yuza to'liqlarining spektral tarkibi va inversiya usullarini qo'llash**» nomli uchinchi bobida grunt-inshoot tizimi va unga tutash erkin maydonda qayd etilgan mikroseysmik tebranishlar HVSR (Horizontal to Vertical Spectral Ratio) usuli asosida spektral tahlil qilindi. HVSR usuli tabiiy yoki sun'iy mikroseysmik tebranishlarning gorizont va vertikal komponentlari nisbatini hisoblash orqali grunt qatlamlarining rezonans chastotalari va ularning seysmik javob xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Ushbu usul Nakamura tomonidan taklif etilgan bo'lib, quyidagi matematik ifodadan (2) foydalanilgan:

$$H/V(\omega) = \frac{A_{H,surface}^{FW}(\omega)}{A_{V,surface}^{FW}(\omega)} \quad (2)$$

bunda  $A_{H,surface}^{FW}(\omega)$  va  $A_{V,surface}^{FW}(\omega)$  – yer yuzasidagi gruntning gorizont va vertikal harakati uchun umumiy (*Full Wavefield* - to'liq to'liq in maydoni) spektral amplitudalari va  $\omega$  – burchak chastotasi. Mazkur metodikaning asosiy afzalligi maxsus seysmik manbasiz, ya'ni passiv rejimda qo'llanishidir. Tadqiqotlarda grunt-inshoot tizimidagi spektral xususiyatlar erkin maydongi nisbatan sezilarli darajada o'zgarishi aniqlandi. Ayniqsa, zamin gruntlarida rezonans chastotalarning siljishi va H/V cho'qqilarining silliqilanishi bino ta'sirida yuzaga kelgan.

Shuningdek, grunt-inshoot tizimi va erkin maydon uchun seysmik zaiflik indeksi (Vulnerability Index) hamda seysmik intensivlik orttirmasi hisoblab chiqildi. Seysmik zaiflik indeksi quyidagi formula (3) bilan aniqlandi:

$$K = \frac{A^2}{f_0} \quad (3)$$

bunda  $A$  – H/V spektral amplitudasining maksimal qiymati,  $f_0$  esa grunt yoki grunt-inshoot tizimining dominant tebranish chastotasini bildiradi.

Zaiflik indeksi HVSR spektral amplitudasi va dominant chastota asosida aniqlanib, ob'ektlarning zilzilaviy ta'sirlarga nisbatan sezuvchanlik darajasini

baholash uchun asosiy mezon sifatida xizmat qildi. Intensivlik orttirmasi esa grunt qatlamlarining tebranish energiyasini kuchaytirish yoki susaytirish qobiliyatini ko'rsatdi va quyidagi ifoda (4) bilan aniqlanadi:


$$\Delta I = 2 \log \left( \frac{A_i}{A_n} \right) \quad (4)$$

bunda  $A_i$  – tadqiqot punktidagi H/V amplitudasi,  $A_n$  – tayanch punktdagi H/V amplitudasi.

Sayoz poydevorli binolar joylashgan obyektlarda (Ko'kaldosh madrasasi, Ilg'or texnologiyalar markazi) rezonans chastotalar bino qurilishidan keyin sezilarli darajada pasaygani (1,84 Gs gacha) va HVSR amplitudalari 24-36% ga kamaygani kuzatilgan. Seysmik zaiflik indeksi (K) ortgan (1,03 dan 1,91 gacha), bu esa gruntning tebranishlarga nisbatan sezgirliги oshganligini bildiradi.

Chuqur poydevorli binolar (Chilanzar Business City, N'Medical Center, Jizzax TJM) bo'yicha olingan natijalarda HVSR amplitudalari 36% dan 61% gacha pasaygan, rezonans chastotalarda esa turlicha tendensiyalar kuzatilgan. Ba'zi hollarda rezonans chastotasi kamaygan bo'lsa (2,03 Gs farq bilan), ba'zilarida esa deyarli o'zgarmagan. Chuqur poydevorli binolarda seysmik zaiflik indeksleri kamayib, grunt qatlamlarining seysmik ta'sirlarga bardoshliligi oshgani qayd etilgan.

Qoziqsimon poydevorli grunt-inshoot tizimi bo'yicha olib borilgan tahlil (NRJ U-Tower) natijalari ayniqsa diqqatga sazovor bo'lib, bu obyektida HVSR amplitudasi 28,6% ga pasaygan, rezonans chastotasi esa 0,71 Gs dan 1,64 Gs gacha oshgan (4-rasm). Bu, qoziqlarning chuqur qatlamlarga uzatilganligi tufayli rezonans sohasining yuqoriga siljiganini bildiradi.




4-rasm. №6 obyektidagi erkin maydon H/V spektrining grunt-inshoot tizimida o'zgarishi

Bundan tashqari, seysmik zaiflik indeksi keskin kamaygan ( $K_{em}=11,1$  dan  $K_{git}=2,8$  gacha), bu grunt qatlamlari zichlashib, inshoot ta'sirida sezilarli barqarorlikka erishganini ko'rsatadi. Ushbu holatda grunt-inshoot tizimi erkin maydonga nisbatan kuchliroq tebranishlarni samarali yutgan.




Natijaviy tahlillarda, shuningdek, bino balandligi (qavatlar soni) ortgan sari erkin maydon va grunt-inshoot tizimi o'rtasidagi jadallik orttirma qiymatlaridagi farq ham ortgani aniqlangan (5-rasm). Bu esa bino massasi oshgani sari uning gruntga ko'rsatadigan dinamik ta'siri kuchayishini tasdiqlaydi.



5-rasm. Erkin maydon va grunt-inshoot tizimlari o'rtasida seysmik jadallik orttirmasi farqining bino balandligiga bog'liqligi

HVSR egri chiziqlari asosida Geopsy dasturining Dinver moduli asosida erkin maydon va grunt-inshoot tizimlari uchun 1D Vp va Vs seysmik tezlik modellarining inversiyasi bajarildi. Tahlillar natijasida 30 metr qalinlikdagi grunt qatlamlarining Vs30 va Vp30 qiymatlari aniqlandi (6-rasm). Barcha obyektlar hududiga binolar qurilganidan so'ng zamin gruntlarining Vs30 qiymatlari ortgani kuzatildi (340 m/s dan 490 m/s gacha), bu esa grunt qatlamlarining zichlashganligini va seysmik energiyani samaraliroq uzatishini bildiradi.

Ushbu modellarni tekshirish uchun MASW (Multichannel Analysis of Surface Waves) usuli asosida olingan dispersiya chiziqlari bilan taqqoslash amalga oshirilib, Vs30 qiymatlari o'rtasida  $\pm 10$  m/s atrofida farq aniqlangan. Bu esa HVSR asosida qurilgan modellarni ishonchli deb baholash imkonini berdi.



6-rasm. Obyekt №5 uchun H/V spektri asosida qurilgan tezlik modellari: A, B – erkin maydon Vp va Vs modellar; C, D – grunt-inshoot tizimi Vp va Vs modellar

Dissertatsiyaning «**Grunt-inshoot tizimining statik va dinamik yuklar ta'siridagi holatini 3D sonli modellashtirish**» deb nomlangan to'rtinchi bobida PLAXIS 3D dasturi yordamida chekli elementlar usuliga asoslangan sonli modellashtirish amalga oshirilgan. Dastlab 30 m qalinlikdagi gruntning erkin

maydon sharoitida statik va zilzila ta'siriga dinamik javobi aniqlangan. Keyingi bosqichda ushbu grunt massivi ustiga har xil og'irlik va poydevor turiga ega bo'lgan binolar joylashtirilib, grunt-inshoot sharoitida ularning zamin gruntiga hamda zilzila tebranishlariga javobi aniqlanib, natijalar erkin maydon ko'rsatkichlari bilan solishtirildi. Modellashirishning asosiy maqsadi bino-inshootlar qurilishi natijasida qurilish maydonlarining seysmik xususiyatlari qanday o'zgarishini kompleks baholashdan iborat.

